

## IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTAB O'QUVCHILARINI MAQOM ASHULALARI VOSITASIDA ESTETIK TARBIYALASHNING IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8179091>

**Hasanov Halim Ravshanovich**

*Buxoro davlat universiteti*

*"Cholg`u ijrochiligi va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada musiqa madaniyati darolarida o'quvchilarini maqom ashulalari vositasida estetik tarbiyalash omillarining mohiyati yoritilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Maqom , musiqiy meros, estetik , musiqiy namunalari, maqom san'ati*

*В данной статье рассмотрена сущность факторов эстетического воспитания учащихся средствами статусных песнопений на уроках музыкальной культуры.*

### **Ключевые слова**

*статус , музыкальное наследие, эстетика , музыкальные образцы, статусное искусство*

*This article covers the essence of the factors of aesthetic education of students through the means of status singing in the lessons of music culture.*

### **Keywords**

*status, musical heritage, aesthetic, musical samples, status art*

Maqom ajdodlardan biz avlodlarga o'tib kelayotgan boy xazina. Uni asrab avaylash va bugungi kun yosh ijodkorlari uchun o'z aslicha hech bir ziyonlarsiz yetkazib bera olishimiz shart. Buning uchun esa avvalo o'zimiz bu oltin san'atning tub mazmunini anglashimiz, undagi sehrli jilolaru, qalblarni titratguchi pardalarini aynan asl holicha tushunmog'imiz va ijro etmog'imiz kerak. Aks holda o'zimiz to'laqonli anglab yetmagan tushunchani yosh avlodga yetkazgudek bo'lsak bu durdona san'atga bo'lgan bizning o'quvsizligimiz va hurmatsizligimiz bo'lib qolishi mumkin. Maqom san'atini o'rganishda quyidagi imkoniyatlarga mavjudki ulardan foydalanmaslikning ilojisi yo'q. Bular:

- Maqom asar ijrochisining malakasini aniqlash. Bu nima degani? Masalan: asar o'rganayotgan oson uchun bu asar nechinchisi. Agar ilk asar bo'lsa u holda

oson va qisqaroq hajmdagi asarni tanlash joiz. Oshirilayotgan malakaga qarab asarlarni murakkablashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Maqom asar ijrochisining ovoz imkoniyatini aniqlash. Bu holatda ma'lumki tanlangan asarning avj pardalariga ijrochi ovozinin mutanosligi mos kelishi kerak. Yaniki agar ijrochi ovozidagi avj imkoniyati doimiy holatda "Fa" notada bo'lsayu tanlangan asar avji "Lya" pardada bo'lsa ijrochiga qiyinchilik va noqulaylik tug'diradi.

- Maqom asarni kelib chiqishini aniqlash. Masalan: "Soqinomial savti kalon"ni olsak. Bu maqom asari Shashmaqomning Rost maqomidan olingan bo'lib, Bobur g'azali bilan aytilgan. "Qashqarchai savti kalon" ashulasi Avaz O'tar qalamiga mansub bo'lib, bu ikkila asar Rost maqomining ikkinchi guruh sho'balariga kiradi. Maqom ashulalarining har bir ashulasining kelib chiqish tarixi bor. Demak, maqom ashulalarining kelib chiqishini bilish uni ijro etishdagi holatlarni asliga moslab beradi.

- Maqom ashulalaridagi so'zlar va ularning ma'nosi tushunib yetish. Bunda ijro etilayotgan musiqiy asardagi so'zlarning tub ma'nosini aniqlash ijro mobaynida so'zlarga o'zgacha sehr va tabiiylik baxsh etadi. Agar ijrochi kuylayotgan ashulasidagi so'zlar ma'nosiga tushunmas ekan u holda ashula unga bo'yun sunmaydi.

- Maqom ashulalarini asl holicha va sof ijrosiga e'tibor qaratish. "Maqomni tuzatsang - tuzat, also buzma". Maqomni buzishga hech kimning haqqi yo'q. So'zni xato talaffuz qilish, ohangni, avjni noto'g'ri talqin qilish xalqning boy ma'naviy merosiga xiyonat qilgan bilan barobar. "Kecha kelgum" deb boshlanuvchi g'azal "Kecha keldim" shaklida ijro etilmasligi kerak. Bunda so'z bilan ishlashga alohida ahamiyat bermoq lozim. Maqomda chiroyliroq ijro yarata olinsagina o'zgartirish kiritish mumkin.

Yuqoridagi maslahatlar asosida olingan bilimlar maqom san'atini osonroq o'rganib olishga ko'mak vazifasini bajaradi. Maqom san'atini o'rganar ekansiz undagi manbalar va uni kelib chiqishi haqida chuqurlashsangiz har bir qirradi inson siyratidan olinganini anglab yetasiz. Masalan maqomdagi usullarni olaylik, usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillardandir. Ularni ajrata olish, maqomlarni qiyofasini to'g'ri tushunishga imkon beradi. Ular muayyan tartib asosida tarkib topgan. Har bir usul o'z nomiga egadir.

Masalan: Saraxbor, nasr, talqin, savt, gardun, talqin, qashqarcha, soqiynoma, ufar va h.k. Manbalarda ko'rsatilishicha, ilk usul insonning tomir urishidan olingan. Tomirni barmoq bilan ushlab ko'rilsa, uning go'yo "tan-tan"ga o'xshash bir tekis urayotgani bilinadi. Olimlar buni "Usuli zarbi qadim" (Qadimiy zarb

usuli) deb ataganlar.bu ham bo'lsa bir sehrdek gap. Mana shunday sehrga ega "Maqom" san'atini o'rganishda va uni o'rgatishda eng avvalo uni kelib chiqishi, shakllanishi, bugungi kunimizdagi ahamiyatini chuqur o'rganishimiz va ana shu tushunchalarni o'z aslicha yosh o'rganuvchilarga yetkazishimiz, maqom san'atini hali yana ming yillar yashashi va yashnashiga asos bo'la oladi degan umiddamiz.

Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va san'atsevar xalqimizga yetkazish muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa bu borada ustozdan - shogirdga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlarida murojaat qilish bilan birga bobokalon sanoatkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganib bormog'imiz lozim.

Maqomga doir manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy - nazariy va amaliy tamonlari bor.

Har qanday kuy-ashula tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining ob'ektiv qonunlari to'g'risidagi bilimlarning yakunidan, jamlanishidan, ishonarli va umumlashgan bilimlar tizimidan iborat bo'ladi. Maqom san'atini insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi muayyan jihatlarining maxsus tayyorlangan shaxs rahbarligida (o'qituvchi, tarbiyachi, professor, instruktor rahbarligida) o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini uzviy birlikda ado etuvchi jarayondir.

Maqom masalalari hozirgi zamon ta'lim-tarbiyaning umumiy muammolari bilan bog'liq holda qaraladi. Maqom san'ati estetik tarbiya vositasi sifatida ancha keng tarqalgan. Bu jarayon amalga oshirishda musiqa darsi muhim o'rin tutadi. Estetik tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z his-tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi.

Maqom san'ati keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim-tarbiya muassasalari tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv-tarbiya jarayonining biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilishi tushiniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan estetik tarbiyaning maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga va ona Vatanni doimo sevishga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Maqom san'ati go'zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Maqomchilik intellektual asosni qaror toptirishdan hech qachon yuz o'girmaslik

kerak. Maqom ashulalarini tinglashda u yoki bu holatlarni his etib boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinayotgan materialni farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz va fikr yuritimiz.

Maqom san'ati qobiliyatlarni rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996. -174 b.
2. O'zbek xalq musiqasi. Buxoro maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi YU .Rajabiy. III-tom. -T.: O'zbekiston SSR Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1959. - 864 b.
3. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. -T.: FAN, 1993. -56 b.
4. Fayzulina S.X. O'quvchi yoshlarning estetik tarbiyasi.- T.: O'qituvchi,1978.49b.
5. . Культура и искусство в эпоху Амира Темура и темуридов Х.Р. Хасанов "Вестник науки и образования",2020г, стр: 119-122
6. " ANSAMBL IJROCHILIGI FAOLIYATING TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI" H.R.Hasanov Scientific progress 2021 й. 1 (6), 650-655б